

## KORXONALAR VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TA'RIFI

Korxonalar va tashkilotlar yagona davlat registri ma'lumotlariga ko'ra, 2018 yilning 1 aprel holatiga ro'yxatga olingan yuridik shaxslar soni 56077 tani tashkil qilib, shundan 44899 tasi yoki 80,0 foizi faoliyat ko'rsatmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi qishloq va o'rmon xo'jaligi 34530 ta (61,6 foizi), savdo 5258 ta (9,4 foizi), sanoat 4063 ta (7,2 foizi), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar 1372 ta (2,4 foizi) va qurilish 2038 ta (3,6 foizi) sohalariga to'g'ri keladi.

### 2018 yilning 1 aprel holatiga ro'yxatga olingan hamda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar-iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha


	Ro'yxatga olinganlar		Faoliyat ko'rsatayotganlar	
	birlik	yakunga nisbatan foizda	birlik	yakunga nisbatan foizda
<b>Jami</b>	<b>56077</b>	<b>100,0</b>	<b>44899</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>				
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	34530	61,6	24551	54,7
Sanoat	4063	7,2	3837	8,5
Qurilish	2038	3,6	1867	4,1
Savdo	5258	9,4	4888	10,9
Ttashish va saqlash	770	1,4	730	1,6
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1372	2,4	1299	2,8
Axborot va aloqa	427	0,8	398	0,9
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy izmatlar ko'rsatish	512	0,9	505	1,2
Boshqa turdagi xizmatlar ko'rsatish	7107	12,7	6824	15,3

Ro'yxatga olingan korxonalar umumiy sonining 6,8 foizi davlat mulki shaklidagi korxonalar hisoblanadi.

Ro'yxatga olingan korxonalar umumiy sonining 93,2 foizi nodavlat mulki shaklidagi korxonalar, shundan 9,2 foizi xususiy korxonalar, 0,5 foizi chet el sarmoyasi ishtirokidagi korxonalar, 0,06 foizi aksiyadorlik jamiyatlari va 83,4 foizi boshqa korxonalar ulushiga to'g'ri keldi.

### Ro'yxatga olingan xo'jalik yurituvchi sub'yektlar

(umumiy soniga nisbatan foiz hisobida)



2018 yil yanvar-martda jami 2029 ta yangi korxonalar va tashkilotlar ro'yxatga olingan. Ularning asosiy qismi Samarqand shahrida (17,8 foizi), Qo'shrabot (9,6 foiz), Payariq tumanida (9,2 foiz), Pastdarg'om (8,5 foiz), Ishtixon (8,2 foiz), Urgut (6,0 foiz), Samarqand (5,7 foiz), Kattaqo'rg'on (5,5 foiz) va Jomboy (5,3 foiz) tumanlariga to'g'ri keldi.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlarning 49,5 foizi qishloq va o'rmon xo'jaligi, 13,1 foizi savdo, 12,2 foizi sanoat, 8,2 foizi boshqa sohalarda, 7,3 foizi qurilish hamda 5,2 foizi yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarga to'g'ri keladi.

Hisobot davrida 787 ta korxonalar va tashkilotlar faoliyati tugatilgan bo'lib, ulardan 82 tasi (jami faoliyati tugatilganlarning 10,4 foizi) ixtiyoriy tugatilish tartibini qo'llash orqali tugatilgan.

### Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

2018 yil 1 aprel holatiga viloyatda jami 305 ta xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar mavjud bo'lib, ulardan 236 tasi qo'shma korxonalar, 69 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalarining ulushi, foizda**



***Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining hududlar kesimidagi soni va ulushi***

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi Samarqand shahri (158 ta yoki 51,8 foizi), Urgut tumanida (36 ta 11,9 foizi), Jomboy (24 ta 7,9 foizi), Samarqand (16 ta 5,3 foizi), Tayloq (13 ta 4,1 foizi), Oqdaryo, Pastdarg'om va Kattaqo'rg'on shahrida (9 tadan 3,1 foiz), Bulung'ur va Nurobod tumanlarida (7 tadan 2,3 foiz) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Qo'shrabot tumani (1 ta 0,4 foizi), Kattaqo'rg'on (2 ta 0,7 foizi), Payariq (2 ta 0,7 foizi), Ishtixon (3 ta 1,0 foiz), Paxtachi (3 ta 1,0 foizi), Narpay (3 ta 1,0 foizi) hissalariga to'g'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.


	soni	ulushi, %
<b>Samarqand viloyati</b>	305	100,0
Samarqand sh	158	51,8
Kattaqo'rg'on sh	9	3,1
<i>tumanlar:</i>		
Oqdaryo	9	3,1
Bulung'ur	7	2,3
Jomboy	24	7,9
Ishtixon	3	1,0
Kattaqo'rg'on	2	0,7
Qo'shrabot	1	0,4
Narpay	3	1,0
Payariq	2	0,7
Pastdarg'om	9	3,1
Paxtachi	3	1,0
Samarqand	16	5,3
Nurobod	7	2,3
Urgut	36	11,9
Tayloq	13	4,4

## Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni


2018 yil yanvar-mart oylarida viloyatda, jami 27 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tashkil etilgan bo'lib, ularning asosiy qismi Samarqand shahri (18 ta), Urgut tumani (3 ta), Samarqand, Tayloq tumanlarida (2 tadan) va Oqdaryo, Jomboy tumanlarida (1 tadan) tashkil etilgan. Qolgan tumanlarni xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tashkil etilmagan qatoriga kiritish mumkin.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan savdoda 9 ta, sanoat va qurilishda 5 tadan, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 3 ta, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 2 ta, axborot va aloqada 1 ta hamda boshqa faoliyat turlarida 2 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.

### Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda



**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, foizda**




Sohalar kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 aprel holatiga eng ko'p sanoatda 197 ta (64,6 foiz), savdoda 43 ta (14,1 foiz), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 17 ta (5,6 foiz), boshqa turlarida esa 21 ta (6,9 foiz) tashkil qilgan. Eng kamlari esa axborot va aloqada 3 ta (1,0 foiz), tashish va saqlash, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 4 tadan (1,3 foiz) hamda qurilish, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 8 tadan (2,6 foiz)ni tashkil qilgan.

**Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni**

2018 yil 1 aprel holatiga viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni 16843 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 aprel holatiga qaraganda 10,6 foizga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub'yektlarining asosiy qismi yani 5807 tasi (34,5 foizi) Samarqand shahriga, 1610 tasi (9,5 foizi) Urgut, 1228 tasi (7,1 foizi) Pastdarg'om hamda 1210 tasi (7,2 foizi) Samarqand tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

2018 yil yanvar-mart oyilarida 1088 ta kichik tadbirkorlik sub'yektlari yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilga qaraganda 15,3 foizga kamdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan tadbirkorlik sub'yektlari Samarqand shahrida (339 ta), Samarqand (111 ta), Urgut (71 ta) va Payariq tumanlarida (65 ta) tashkil etilgan. Eng kam yangi tashkil etilgan tadbirkorlik sub'yektlari esa Narpay va Paxtachi (22 tadan) hamda Qo'shrabot (30 ta) tumanlariga to'g'ri kelgan.


## Yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik sub'yektlari, birlikda



## Oilaviy korxonalar soni

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2018 yilning 1 aprel holatiga 1816 tani tashkil etib, ulardan 1755 tasi yoki 96,6 foizi faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yxatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 38,7 foizga o'sgan.

## Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qaralganda oilaviy korxonalarining 34,5 foizi yoki 606 tasi sanoat, 26,8 foizi yoki 471 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 16,2 foizi yoki 284 tasi savdo, 9,7 foizi yoki 170 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,9 foizi yoki 33 tasi axborot va aloqa, 1,2 foizi yoki 21 tasi qurilish, 0,9 foizi yoki 15 tasi tashish va saqlash, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish 0,3 foizi yoki 6 tasi hamda 8,5 foizi yoki 149 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, foizda**

